

**TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANIB
KASBIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI****Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasini mudiri, PhD, dotsent

Yadgarova Surayyo Yusupovna Nizomiy nomidagi TDPU

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda OTMLlarda talabalarga mustaqil ta'lim topshiriqlarini berish orqali kasbiy madaniyatini oshirish, kasbiy madaniyat tushunchasi, mustaqil ta'limni tashkil etish orqali talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ijodiy va ijtimoiy faolligini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, kasbiy madaniyat, metodologiya, talaba, kredit modul, mustaqil fikrlash, pedagogika, oliy ta'lim.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi talablarining mustaqil ta'lim faoliyatiga asoslanganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlarda fanlarni o'qitishga doir ilmiy adabiyotlarda mustaqil ta'lim topshiriqlari va mustaqil o'quv topshiriqlarning mazmuniga, samaradorlik darajasiga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim topshiriqlaridan savol, tezkor savol-javob o'yin texnologiyalari, topshiriq va matn tahlillaridan unumli foydalaniladi. yurtimizda ham bu borada tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida "Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" masalalarida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Mustaqil ta'lim - o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat hisoblanadi. Mustaqil ta'lim topshiriqlari talabalardan o'z bilimlarini mustaqil ravishda chuqurlashtirishni talab qiladi. Shuningdek, mustaqil ta'lim topshiriqlari talabalarining kasbiy madaniyatini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. Chunki bunday topshiriqlar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki talabaning o'z kasbiga bo'lgan mas'uliyatini oshirish va kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun asos yaratadi. Kasbiy madaniyatni rivojlantirishda mustaqil ta'lim topshiriqlari talabalarni o'z kasbiga nisbatan hurmat va mas'uliyat bilan yondashishga o'rgatadi, kasbiy faoliyatda axloqiy me'yorlar va etika qoidalariga rioya qilish ko'nikmasini rivojlantiradi va talabalarni o'z kasbi bo'yicha zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar bilan tanishtirish orqali professional madaniyatni oshiradi. Mustaqil ta'lim topshiriqlari talabalarining nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalarga aylantirishga, kasbiy etika va madaniyatni shakllantirishga, shuningdek, o'z-o'zini

rivojlantirishga ko‘maklashadi. Bu jarayon orqali talabalar nafaqat o‘z kasbiy sohasida muvaffaqiyatli mutaxassis bo‘lib yetishadilar, balki jamiyat oldida mas‘uliyatli, yuqori madaniyatli va malakali shaxs sifatida shakllanadilar.

Kasbiy madaniyatni rivojlantirish – pedagogik faoliyat rivojining muhim tavsifini o‘zida ifoda etib, ta‘lim jarayonida pedagogik yondashuv, strategik maqsad va vazifalarni to‘g‘ri belgilash, qarorlar qabul qilish, ta‘lim jarayonini loyihalashtirish, innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish, ta‘limni boshqarish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanish orqali shaxs faolligini oshirish, o‘z – o‘zini namoyon etish imkoniyatini kengaytirish, jamiyat talablariga muvofiq faol harakatlanish va samarali muloqot ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotga tadbiq eta olish qobiliyati sanaladi. Kasbiy madaniyatni rivojlantirish jarayoni insondagi motivlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uning mohiyati - inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushuncha sifatida ta‘riflanadi. Motivatsiya esa “xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni” bo‘lib, unga tashabbus, yo‘nalganlik, tashkilotchilik, qo‘llab-quvvatlashkabilarni kiritish mumkin. Bu kabi kabi sifatlarni shakllantirishda talabalarga taqdim etiladigan mustaqil ta‘lim topshiriqlari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mustaqil ta‘lim topshiriqlari talabalarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu topshiriqlar talabalarni mas‘uliyatli, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intiluvchi va kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishuvchi mutaxassis sifatida shakllantiradi. Talabalar mustaqil ishlash jarayonida o‘z vaqtini samarali boshqarish, ijodiy va tanqidiy fikrlash, amaliy topshiriqlarni bajarish orqali kasbiy ko‘nikmalarni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, mustaqil ta‘lim jarayoni orqali talabalar kasbiy etika va madaniyatni, jamoada ishlash qobiliyatini, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.
2. “MUSTAQIL TA‘LIM TOPSHIRIQLARI TUZISHDA, TARBIYA FANINING METODIK VAZIFALARI VA ARM”-maqola. Smetova Jumabiyke . <https://doi.org/10.5281/zenodo.13304511>.
3. Nosirova, D., Jalilov, S. (2021). “KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI”. Журнал математики и информатики[1.3].
4. Jumayeva G.T. Maktab o‘qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari va tarkibiy komponentlari. Ta‘lim, fan va innovatsiya. Jurnal, 2-son.2022. esijournal.uz. T.76-80 b.